**Kalit so‘zlar:** aylanma mablag‘, moliyaviy operatsiyalar, pul mablag‘lari, kredit mablag‘lari, daromad.

### Аннотация

В статье исследованы научно-теоретические аспекты эффективного использования оборотных средств предприятий. Кроме того, в качестве объекта анализируется состояние и динамика структурных изменений оборотных средств АО “Махам Чирчиқ”. Выявлены проблемы, связанные с объемом оборотных средств предприятий и их эффективным использованием, а также разработаны предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** оборотные средства, финансовые операции, денежные средства, кредитные ресурсы, доход.

### Abstract

This article explores the scientific and theoretical aspects of the effective use of working capital in enterprises. Additionally, the working capital status and the dynamics of structural changes at “Maxam Chirchiq” JSC have been analyzed as the object of the study. Problems related to the volume and efficient utilization of working capital in enterprises have been identified, and proposals aimed at addressing these issues have been developed.

**Keywords:** working capital, financial operations, cash funds, credit resources, income.

### KIRISH

Korxonalarning barqaror faoliyati ko‘p jihatdan aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish qobiliyatiga bog‘liqdir. Chunki, aylanma mablag‘larning yetarli darajada mavjud bo‘lishi va ularni oqilona boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligi va ustunligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli, har bir ishlab chiqarish korxonasida aylanma mablag‘larning o‘rni va ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Barqaror iqtisodiy o‘rni ta‘minlash sharoitida ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi sanoat korxonalari o‘z faoliyati davomida turli tarmoq va tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi, moliyaviy manbalar asosida hisob-kitob operatsiyalarini olib boradi. Korxonalar ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini

ta'minlash, mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish va ishlab chiqarishdan sotishgacha bo'lgan jarayonlarni tizimli ravishda amalga oshirish uchun mablag'larni oqilona yo'naltirish va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarali iqtisodiy faoliyat uchun ishlab chiqarish korxonalari o'zlarining moliyaviy operatsiyalarini puxta tashkil etib, yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarni belgilangan muddatda amalga oshirishi kerak. Shu bilan birga, korxonada aylanma mablag'lar aylanishini to'g'ri boshqarish, to'lovlarni to'g'ri yo'naltirish orqali ularning aylanish tezligini oshirish ham doimiy e'tibor talab etadi.

Korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlashda mablag'larni optimal darajada boshqarish va ishlab chiqarish ehtiyojlariga oqilona yo'naltirish katta ahamiyatga ega. Aylanma mablag'larni me'yorga muvofiq boshqarish va ularning aylanishini tezlashtirish korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshiradi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar aylanma mablag'lardan samarali foydalanishga oid xalqaro ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib, xorijiy va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mamlakatimiz olimlari ham korxonalarda aylanma mablag'larni boshqarishning nazariy va uslubiy asoslarini chuqur tadqiq qilib, sohaning rivojiga sezilarli hissa qo'shib kelmoqdalar.

Bugungi kunda iqtisodiyotning faol ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'laridan maqsadli foydalanish va ularni samarali boshqarish, olinadigan mablag'lar va majburiyatlarni o'z vaqtida so'ndirish buxgalteriya hisobini yuritish orqali to'g'ri va o'z muddatida nazorat qilinishini tashkil etishning beshta vazifasini ta'kidlab o'tishgan. Ularga bevosita: pul mablag'lari va hisob-kitobni o'z vaqtida rasmiylashtirish; kassadagi kirim va chiqim qilinayotgan mablag'larni to'g'ri rasmiylashtirish; kassadagi naqd pul mablag'larini qayd qilish va rasmiylashtirish; pul mablag'laridan to'g'ri va maqsadli foydalanishni tashkil qilish; byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni shartnoma bo'yicha to'g'ri yo'naltirish va nazorat qilishga qaratilgan[1].

Darhaqiqat, M.B.Kalonov va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan aylanma mablag'larni shakllanishi va uni ishlab chiqarish jarayoniga to'g'ri yo'naltirish va buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, olimlar tomonidan taklif etilgan beshta vazifa ham xo'jalik yuritishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz ishlab chiqarishida ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida pul mablag'larni shakllanishi va undan aylanma mablag' sifatida foydalanish borasida hamda buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisob siyosatini yuritishda ilmiy-amaliy jihatdan rivojlanishiga hissa qo'shgan iqtisodchi olim R.O.Xolbekov tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag'larini shakllanish tarkibi va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish borasidagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Xususan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari turkumlanishida quyidagi xususiyatlarni e'tiborga olish zarurligi, ya'ni: xo'jalik mablag'laridan foydalanish va xo'jalik mablag'larini korxona faoliyatida qatnashish

xususiyatiga ko'ra tasniflangan. Shuningdek, korxona xo'jalik faoliyatida ishtirok etishiga ko'ra mablag'larni quyidagicha turkumlash lozimligi ta'kidlangan bo'lib, unga ko'ra: asosiy mablag'lar (ishlab chiqarish va noishlab chiqarishda qatnashishiga ko'ra); aylanma mablag'lar (me'yorlanadigan va me'yorlanmaydigan xususiyatiga ko'ra); aylanmadan chetlatilgan mablag'lar (har xil ajratma va to'lovlar)[2].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pul mablag'larini ishlab chiqarishga to'g'ri yo'naltirish asosida aylanma mablag'lar hajmini oshirish va me'yorlashtirish asosida undan foydalanishni tartibga solishning amaliy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Moliya tizimini ustuvor darajada rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borgan mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan professor T.S.Malikov ilmiy ishlarida "aylanma mablag'lar" tushunchasi bevosita "aylanma kapital" sifatida talqin qilingan bo'lib, aynan ushbu tushunchani yoritishda quyidagicha yondashilgan ya'ni, "aylanma kapital" – xo'jalik yurituvchi subyektlarning aktivlariga avanslashtirilgan kapital qiymatni o'zida ifodalaydi. Aylanma kapital manbai quyidagi bir necha asosiy guruhlariga klassifikatsiya qilinadi, ya'ni: takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishini hisobga olgan holda funksional mo'ljallanganligi bo'yicha; shakllantirish va moliyalashtirish manbalariga ko'ra; likvidlilik darajasiga qarab va boshqalar[3].

Barcha ishlab chiqarish jarayonlarida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari aylanma mablag'larning shakllanish manbalarini hisobga olib, mablag'larni ishlab chiqarishga to'g'ri yo'naltirishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Chunki, agar aylanma mablag'lar ishlab chiqarishga samarali yo'naltirilmasa yoki korxona mablag'larni shakllantirishda ortiqcha foizli qarz mablag'laridan foydalansa, iqtisodiyotni ustuvor rivojlantirish sharoitida korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash qiyinlashadi.

Professor E.X.Maxmudovning fikriga ko'ra, aylanma ishlab chiqarish fondlari bu korxona ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bir ishlab chiqarish sikli davomida sarflanishi hamda o'zining natural shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha tayyor mahsulot tannarxiga o'tkazishi ta'kidlangan. Shuningdek, korxona aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xomashyo va materiallar zaxirasi, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i va energetika resurslari, qadoqlash va o'rov materiallari, ehtiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin[4].

Darhaqiqat, ushbu fikrlarni to'ldirgan holda shuni aytish lozimki, korxona faoliyatida aylanma (fondlar) mablag'lar bevosita har qanday faoliyatning boshlang'ich mezonini bo'lib, uning natijasida ishlab chiqarishni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Aylanma mablag'lar korxonada yaratilayotgan mahsulot tannarxiga o'z qiymatini belgilangan davrda to'laligicha o'tkazadi (P-T) ko'rinishida ifodalanadi.

Iqtisodchi olim, professor E.A. Akramov korxonalarda aylanma mablag'larning shakllanishi va undan foydalanish masalalarini chuqur o'rganib, aylanma fondlar tushunchasi va ularning samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tavsiya qilgan. U aylanma mablag'larga ta'sir etuvchi omillarni izohlagan holda, ularning tarkibida ishlab chiqarish zaxiralari va pul mablag'lari borligini hamda bu resurslarning mahsulot tannarxiga qo'shilishini ta'kidlagan. Aylanma mablag'lardan samarali

foydalanish esa mahsulot tannarxini pasaytirishga, foydani oshirishga va korxonaning rentabellik darajasini ko'tarishga xizmat qiladi[5].

Olimning fikrlariga qo'shilgan holda aytish joizki, raqobat sharoitida har bir korxona oldida turgan muhim vazifalardan biri aylanma mablag'lardan oqilona foydalanish va pul mablag'larini to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodchi olimlar I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardaev, va B.I. Isroilovlar o'z tadqiqotlarida aylanma mablag'larning iqtisodiy xususiyatlarini batafsil yoritib, korxonadagi aylanma mablag'lar tarkibiga aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa aktivlar kirishini ta'kidlaganlar. Ularning ta'kidlashicha, aylanma mablag'lar asosiy fondlardan farqli o'laroq, bir ishlab chiqarish sikli davomida to'liq iste'mol qilinadi, qiymatini to'liq tayyor mahsulotga o'tkazadi va doimiy harakatda bo'ladi. Shuningdek, korxona ixtiyoridagi resurslar ketma-ketlikda bir shakldan ikkinchisiga – ya'ni, puldan ishlab chiqarishga, ishlab chiqarishdan tovarga va tovardan yana pulga o'tishi, resurslarning normadan ortiq to'planmasligi zarurligi ham alohida ta'kidlangan[6].

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda ta'kidlash mumkinki, har qanday korxonada aylanma mablag'lar barcha talablar asosida bir ishlab chiqarish siklida ishtirok etib, o'z qiymatini to'liq mahsulot tannarxiga o'tkazishi va doimiy ravishda aylanishda bo'lishi muhimdir. Bu jarayon korxona faoliyatining samaradorligini oshirish va barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlaridan T.K. Rutkauskas aylanma mablag'larning shakllanishini o'rganib, ularning mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: aylanma mablag'lar – bu aylanma fondlarning qiymatini ifodalovchi yig'indi bo'lib, ular korxonaning omborlarida va ishlab chiqarish jarayonida tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligini ta'minlash, yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, byudjet xarajatlarini qoplash va ish haqlarini to'lash uchun zarur mablag'lardan iboratdir. Shuningdek, u barcha aylanma mablag'larni firmaning joriy aktivlari sifatida belgilaydi, bu esa ularning moliyaviy barqarorlik va operativ samaradorlikda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi[7].

T.K. Rutkauskas tomonidan aylanma mablag'lar haqidagi fikrlarni kengaytirgan holda aytish mumkinki, aylanma mablag'lar ishlab chiqarishga yo'naltirilganida, ular nafaqat tayyor mahsulotlarni korxona omborida saqlashga, balki ularni tezkor sotishga intiladigan korxonalarga bozor raqobatida muvaffaqiyat keltiradi. Bozorda o'z pozitsiyalarini saqlab qolish uchun, korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tezda sotishga e'tibor qaratishi zarur. Shu bilan birga, har bir korxona o'z aylanma mablag'larini oqilona va samarali boshqarishga harakat qilishi lozim, chunki bu ularning moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi O.N. Ermolina o'z tadqiqotlarida aylanma mablag'larning iqtisodiy ahamiyatini va ularning ishlab chiqarish jarayonidagi rolini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, aylanma mablag'lar aylanish jarayonida uch bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqichda pul mablag'lari tovar-moddiy zaxiralarini, ya'ni xom ashyo va boshqa resurslarni xarid qilishga sarflanadi. Ikkinchi bosqichda, ishlab chiqarish jarayoni davomida ishchi kuchi jalb qilinib, tayyor mahsulotlar ishlab

chiqarish amalga oshiriladi. Uchinchisi esa, tayyor mahsulotni bozorda sotish orqali qo'lga kiritilgan pul mablag'lariga aylanish jarayonidir. Ushbu uch bosqichning har biri korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va aylanma mablag'lardan samarali foydalanishni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Aylanma mablag'larni boshqarish orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi[8].

Ye.Yu.Karpicheva ham o'z tadqiqotlarida aylanma mablag'lar tushunchasiga nazariy jihatdan to'xtalib o'tgan holda aylanma mablag'lardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egaligi, bevosita aylanma mablag'lar har qanday korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi borasida nazariy yondashuvlarini keltirib o'tgan. Shu bilan birga aylanma mablag'lar tushunchasi "aylanma kapital" va "aylanma aktivlar" tushunchalardan farqlash lozimligi ta'kidlangan[9].

M.A.Loktionova tomonidan aylanma mablag'lar tushunchasiga o'ziga xos darajada yondashgan holda bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanma mablag'lardan samarali foydalanish kerakligi, "aylanma kapital" tushunchasi o'rniga aylanma mablag'lar tushunchasini ishlatish lozimligi ta'kidlab o'tilgan[10]. Rossiyalik olimning fikrlari o'rinli, haqiqatdan ham zamonaviy iqtisodiyot sharoitida "aylanma mablag'lar" terminini ishlatish bu yangicha nazariy yondashuv talqini bo'ladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Aylanma mablag'lar aylanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ularni uch asosiy guruhda ko'rib chiqish mumkin:

- Korxonadagi aylanma mablag'lar holati;
- Korxonaning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- Korxonada aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi darajasi.

Korxonalarda aylanma mablag'lar holatini aniqlash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: aylanma mablag'larning umumiy summasi, ularning o'rtacha qiymati, korxona mablag'lari ichida aylanma mablag'larning ulushi, mablag'larning tarkibiy tuzilishi, korxonada o'z mablag'lari hajmi va aylanma mablag'lar dinamikasi kabi ko'rsatkichlar.

Korxonalarda aylanma mablag'larni tarkibi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, yillar davomida aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi manbalar turlicha o'zgarganini ko'rish mumkin.

"Maxam Chirchiq" AJ da 2012-2022-yillar bo'yicha aylanma mablag'lari o'zgarish dinamikasini tahlil qilamiz.

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, "Maxam Chirchiq" AJda aylanma mablag'larning tarkibiy o'zgarish holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2012-yilda aylanma mablag'lar tarkibida debitorlik qarzдорligining ulushi 60,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, tovar-moddiy zaxiralari 33,6 foizni tashkil etgan. Shu davrda aylanma mablag'lar hajmida pul mablag'larining ulushi keskin darajada tushib ketganligidan dalolat beradi. 2015-2016yillarda aylanma mablag'lar tarkibida eng yuqori ulushni, debitorlik qarzдорligi tashkil etgan holda aylanma mablag'lar aylanmasida pul mablag'lari ulushi keskin kamayishi kuzatilgan. Bu holat esa korxonada aylanma mablag'lar aylanuvchanligiga

ta'sir qilgan.

**1-jadval.**

**“Maxam Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida aylanma mablag‘larning tarkibiy o‘zgarish dinamikasi, % da<sup>1</sup>**

| Yillar | Pul mablag‘lari | Tovar-moddiy zaxiralari | Debitorlik qarzdorlik | Qisqa muddatli investitsiyalar | Aylanma mablag‘lar jami |
|--------|-----------------|-------------------------|-----------------------|--------------------------------|-------------------------|
| 2012   | 4,9             | 33,6                    | 60,6                  | 0,8                            | 100                     |
| 2013   | 4,0             | 29,1                    | 69,2                  | 0,6                            | 100                     |
| 2014   | 5,6             | 28,5                    | 65,4                  | 0,5                            | 100                     |
| 2015   | 0,7             | 18,2                    | 80,4                  | 0,7                            | 100                     |
| 2016   | 1,0             | 26,4                    | 71,9                  | 0,6                            | 100                     |
| 2017   | 5,4             | 26,8                    | 67,6                  | 0,2                            | 100                     |
| 2018   | 6,9             | 64,6                    | 28,2                  | 0,3                            | 100                     |
| 2019   | 7,8             | 69,5                    | 22,6                  | 0,1                            | 100                     |
| 2020   | 3,9             | 69,5                    | 26,6                  | 0,1                            | 100                     |
| 2021   | 22,2            | 61,1                    | 16,5                  | 0,1                            | 100                     |
| 2022   | 9,8             | 76,4                    | 13,6                  | 0,2                            | 100                     |

Shuningdek, 2021-yil holatiga ko‘ra, aylanma mablag‘lar hajmida pul mablag‘larining ulushi ushbu davrda o‘tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada ko‘payganidan dalolat beradi. Ushbu davrga kelib, debitorlik qarzdorligi pasayganligi korxona uchun ijobiy tomonga o‘zgarganidan dalolat beradi.

2022-yil holati bo‘yicha esa aylanma mablag‘lar tarkibida tovar-moddiy zaxiralar hajmi 76,4 foizni tashkil etgan holda o‘tgan yillarga nisbatan keskin ortganligini ko‘rish mumkin. Bu holat esa aylanma mablag‘larning katta qismini bekor turib qolishiga va aylanma mablag‘lar aylanuvchanligiga ta'sir qilishiga sabab bo‘lgan (1-jadval).

**2-jadval.**

**“Maxam Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida aylanma mablag‘lar tarkibining o‘zgarish holati<sup>2</sup>**

| Yillar | Aylanma mablag‘lar hajmi |                         | Barcha aktivlar hajmi |                         | Aylanma mablag‘larning barcha aktivlardagi ulushi, % da |
|--------|--------------------------|-------------------------|-----------------------|-------------------------|---------------------------------------------------------|
|        | mln.so‘m                 | o‘zgarish sur‘ati, foiz | mln.so‘m              | o‘zgarish sur‘ati, % da |                                                         |
| 2012   | 378 217                  | 100                     | 620 427               | 100                     | 61,0                                                    |

<sup>1</sup> “Maxam Chirchiq” AJ ning yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

<sup>2</sup> “Maxam Chirchiq” AJ ning yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

| Yillar | Aylanma mablag'lar hajmi |                         | Barcha aktivlar hajmi |                         | Aylanma mablag'larning barcha aktivlardagi ulushi, % da |
|--------|--------------------------|-------------------------|-----------------------|-------------------------|---------------------------------------------------------|
|        | mln.so'm                 | o'zgarish sur'ati, foiz | mln.so'm              | o'zgarish sur'ati, % da |                                                         |
| 2013   | 560 574                  | 148,2                   | 746 333               | 120,3                   | 75,1                                                    |
| 2014   | 566 832                  | 101,1                   | 863 579               | 115,7                   | 65,6                                                    |
| 2015   | 779 188                  | 137,5                   | 1 080 987             | 79,8                    | 72,1                                                    |
| 2016   | 503 951                  | 64,7                    | 696 033               | 155,3                   | 72,4                                                    |
| 2017   | 551 432                  | 109,4                   | 870 420               | 125,1                   | 63,4                                                    |
| 2018   | 309 875                  | 56,2                    | 676 403               | 77,7                    | 45,8                                                    |
| 2019   | 499 535                  | 161,2                   | 884 150               | 130,7                   | 56,5                                                    |
| 2020   | 599 063                  | 119,9                   | 1 034 099             | 85,5                    | 57,9                                                    |
| 2021   | 867 726                  | 144,8                   | 1 200 089             | 86,2                    | 72,3                                                    |
| 2022   | 1 011 609                | 116,6                   | 1 460 923             | 82,1                    | 69,2                                                    |

“Maxam Chirchiq” AJda aylanma mablag'lar hajmining o'zgarishi hamda jamiyatning barcha aktivlardagi ulushida aylanma mablag'lar ulushi yildan-yilga o'zgarish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2012-yil holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, barcha aktivlarda aylanma mablag'larning ulushi 61,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib aylanma mablag'larning ulushi 69,2 foizni tashkil etgan. Tahlillardan ko'rish mumkinki, aylanma mablag'larning salmog'i 2022-yilga kelib o'tgan 2021-yilga nisbatan 3,1 foizga pasayganini ko'rish mumkin (2-jadval).

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, korxonalarda aylanma mablag'lar hajmi va tarkibiy tuzilishi bilan bog'liq to'lovga qobiliyatlilikni yo'qolishi yoki aylanma mablag'lar samaradorlik ko'rsatkichlarining pasayishi quyidagi muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi:

1. Korxonada pul mablag'larining yetishmasligi. Bu holat korxonalar faoliyatida kutilmagan xarajatlar yuzaga kelganda moliyaviy xavflarni paydo bo'lishiga yoki ishlab chiqarish faoliyatini to'xtashiga, korxona shartnomaga ko'ra o'z majburiyatini bajara olmaslik xavf-xatari hamda korxona kutilgan daromadni qo'lga kiritma olmaslik xavflari ortishiga sabab bo'ladi.

2. Korxonada ishlab chiqarish zaxiralari yetishmasligi yoki pasayish jarayonining kuzatilishi. Korxona ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun doimiy ravishda yetarlicha xom ashyo va turli materiallarning mavjud bo'lishi, bu holat esa korxonaning iste'molchi oldidagi mas'uliyatni bajarishi uchun zarur. Agarda korxona yetarlicha zaxira bilan ta'minlanmasa korxonada kutilmagan xarajatlar ortishi yoki ishlab chiqarishni ma'lum bir muddat to'xtashiga sabab bo'ladi.

3. Korxonada o'z kredit mablag'larining yetishmaslik holati. Bu jarayon korxonalar o'rtasida kreditorlik va debitorlik qarzdorlik darajasiga ta'sir etadi. Debitorlik qarzdorligining ortishi korxonaning to'lovga qobiliyatlilik darajasiga ta'sir qiladi.

4. Korxonada aylanma mablag'larning ortiqchaligi. Korxonada aylanma mablag'larning ortiqcha to'planishi korxona aylanmasiga ta'sir qilgan holda daromadni kamaytiradi.

5. Korxonada debitorlik qarzdorligining ortishi. Bu holat har qanday korxona uchun salbiy holat hisoblanib, korxona aylanmasiga ta'sir qiladi. Shu bois, korxonalar imkon qadar aylanma mablag'lar salmog'ida debitorlik qarzdorlik darajasini pasaytirishga harakat qilish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kalonov M.B, Abdivaxidov F.T., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik.-T.: "IQTISODIYOT", 2023. 52-bet.

2. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobiga kirish. Darslik.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022, 29-30 betlar.

3. Маликов Т.С. Молия-хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма.-Т.: "ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2009, 93-94-бетлар.

4. Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти (Ўқув қўлланма)-Т.:ТДИУ-2004 – 125-бет.

5. Акрамов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. — Т.: Молия, 2003. – 85-бет.

6. Абдукаримов И.Т., Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И. Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили. Монография. Тошкент: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси" нашриёт уйи. 2003.-97-бет.

7. Экономика организации (предприятия): учебное пособие/ Т.К.Руткаускас [и др.]; под общ. ред. д.э.н., проф. Т.К.Руткаускас – 2-е изд., перераб. и доп. – Екатеринбург: Изд-во УМЦ, УПИ, 2018. 91 с.

8. Ермолина О.Н. Управление оборотным капиталом предприятия: На примере лесопильно-деревообрабатывающих предприятий Архангельской области. Диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10. Архангельск, 2006.- 201 с.: ил. РГБ ОД, 61 06-8/3704.

9. Карпычева Е.Ю. Формирование механизма управления оборотными средствами предприятий АПК: Автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.05/Е.Ю.Карпычева: Орловский государственный институт экономики и торговли. – Воронеж., 2014. — 27 с.

10. Локтионова М.А. Развитие инструментария формирования и оценки финансового потенциала в системе финансового менеджмента корпораций: Автореферат. дисс. канд. экон. наук: 08.00.10 / М.А.Локтионова: Ставропольский университет. — Владикавказ, 2018. — 28 с.

“Махам Chirchiq” AJ ning yillik hisobotlari.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710.** FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**